



## BOLALARDA IJTIMOYIY ONGNI SHAKLLANTIRISH

*Хамраева А.Ф.*  
*JDPU p.f.f.d*

**Tayanch so'zlar:** ijtimoiy ong, xulq-atvor, sezgir davr, bioijtimoiy munosabatlar, kognitiv-motivasion bosqich, o'zaro hamkorlik usullari.

**Ключевые слова:** общественное сознание, поведение, сенситивный период, биосоциальные отношения, когнитивно-мотивационный этап, способы взаимного сотрудничества.

**Key words:** public consciousness, behavior, sensitive period, biosocial relations, cognitive-motivational stage, ways of mutual cooperation.

**Резюме:**

Ushbu maqolada bolalarda ijtimoiy ongni shakllantirish haqida fikr yuritilgan.

**Резюме:**

В данной статье рассматривается формирование социального сознания у детей.

**Summary:**

This article examines the formation of social consciousness in children.

Ma'lumki, ijtimoiylashuv keng ma'noda, o'sib kelayotgan avlodning an'ana va qadriyatlarni o'zlashtirishi hamda ijtimoiy tajribani faol qayta qo'llash tufayli jamiyat hayotida ishtirok yetish jarayoni hamda natijasi sifatida tushuniladi. Bu esa, maktabgasha yosh xususiyatlariga mos ravishda bolalarning shaxslararo munosabatlarini maqsadli yo'lga qo'yishga doir pedagogik mexanizmga bo'lgan zarurat va uning yechimi bo'yicha ilmiy asoslangan amaliy yondashuvlarni aniqlashtirishga yetarlisha e'tibor bermaslik; zamonaviy maktabgacha ta'lim jarayonining kommunikativ va ijtimoiy yo'nalishini amalga oshirishga bo'lgan zarurat bilan bolalarda ijtimoiy ongni shakllantirishga doir innovatsion yondashuvlarning yetarli darajada ishlab shiqilmaganligi; jarayon sub'ekti va an'anaviy tarzda ijro etuvshi tarkibiy asosni amalga oshirishga yo'naltirilgan bolalar faoliyatini tashkil etish shakllari o'rtasida qator qarama-qarshiliklarni keltirib shiqaradi.

Aslida ijtimoiy jihatdan maqbul xulq-atvor shakllarini tarkib toptirish va mustahkamlash hamda ulardan yangi shaxslararo munosabatlar tizimida foydalanish imkoniyati mavjud. Xulq-atvorga oid vazifalarni hal qilishning



tez-tez takrorlanadigan usullari odatlarga aylanib boradi. Mazkur fikrni L.I.Bojovichning fikrlari ham tasdiqlaydi. Unga ko'ra, muayyan shaxsiy fazilatlar asosini bola xulq-atvorining odatiy shakllari tashkil etadi. Ijtimoiy ongni shakllantirish haqida gapirganda, ijtimoiy obyektga sust taqlid qilishga emas, balki ijodiy o'zgarishlarga imkon beradigan samarali ta'sir ko'rsatish me'yor va vositalariga muvofiq taqdim etilgan vaziyatda faol va ongli xatti-harakatlarga alohida e'tibor qaratish zarur. Aynan shu turdagi xatti-harakatlar ijtimoiylashuvning yuqori darajasiga to'g'ri keladi va unda atrof-muhit va o'z faoliyatini baholash bilan bog'liq bo'lgan anglash elementi mavjuddir.

Izohli lug'atlarda qayd etilishicha, ijtimoiy ong: 1) individning jamiyat va tabiat haqidagi voqelikdan xabardorligi; 2) tabiat tomonidan in'om etilgan insonning ehtiyojlari, hissiyoti, ishonch va motivasiyasi; 3) jamiyat mahsuli bo'lib, faqat insongagina xosdir. U ijtimoiy hayot va munosabatlar uyg'unligini o'zida ifoda etadi. Ijtimoiy ong tufayli bolaning jamiyatda o'z-o'zini anglashi sodir bo'ladi, kechayotgan jarayonlarga munosabati shakllanadi; 4) jamiyat hayotining, shaxslararo muloqot va munosabatlarni o'zida aks ettiradigan, xilma-xil ijtimoiy qarashlar, tasavvurlar, g'oyalar, nazariyalar va ta'limotlar majmui.

Zamonaviy maktabgacha ta'limni rivojlantirishning yetakchi tendensiyasi nafaqat bolalarda tayanch kompetensiyalarni shakllantirish, intellektual salohiyatini rivojlantirish, balki bola shaxsining umumiy rivojlanishini ta'minlash uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish, uning muvaffaqiyatli ijtimoiylashuvida muhim o'rin tutadigan ijtimoiy ongni shakllantirishni ham o'z ichiga oladi.

1. Maktabgacha katta yosh – bu ijtimoiy ongni shakllantirishning sezgir davri hisoblanadi (L.Vigotskiy, L.Kolberg, E.Erikson va boshqalar) va ontogenezning ma'lum bir bosqichi sharoitida yanada rivojlanishi uchun asos bo'ladi. Maktabgacha katta yoshdagi bolalar kooperasiya va hamkorlikka juda qiziqishi va "tarbiyachi-bola" munosabatlari tizimi aslida uning maktabgacha ta'lim hayotining asosini tashkil etishini hisobga olsak, pedagogik o'zaro munosabat istiqbollarni qadriyatlar tizimi va qadriyatli munosabatlarni shakllantirish nuqtai nazaridan, shuningdek, aynan shu yosh davridagi munosabatlar madaniyatini hisobga olish asosida belgilab olish kerak bo'ladi.

2. Bolalarda ijtimoiy voqelikka nisbatan qadriyatli munosabatni shakllantirish xususiyatlari quyidagi yosh va psixologik jihatlariga bevosita bog'liqdir:

3. Birinchidan, o'yin bolaning hayotida muhim ahamiyat kasb etadi, bolada unda belgilangan qoidalarga amal qilish qobiliyatini rivojlantiradi, bu esa, o'z

navbatida bolani belgilangan me'yorlar doirasida harakat qilish ko'nikmasini rivojlantirishga undaydi;

4. Ikkinchidan, ilk hayotiy tajriba bilan bog'liq qadriyatlar va ularning ma'nolarini yaxshi tushunmaslik bolaning ijtimoiy voqelikda faol harakat qilishiga to'sqinlik qiladi;

5. Uchinchidan, shaxsiy mayllar va tez toliqish faoliyat turlari hamda ish shakllarini tanlashga ta'sir qilib, ular o'z jozibadorligi, obrazlarning yorqinligi, ijtimoiy voqelikni tushunishga qiziqish uyg'otishi, shuningdek, mo'tadil harakatchanlik bilan ajralib turishi kerak;

to'rtinchidan, axloqiy me'yorlar, odob qoidalari to'g'risidagi zaruriy bilim hamda bolaning axloqiy ustanovkalari va shaxsiy xohish-istaklarining o'zaro mos kelmasligi kundalik hayotiy vaziyatda maqsadga muvofiq tarzda korreksiya qilib borilishi lozim.

Pedagogika va psixologiya ilmidagi mavjud emotsional intellektga doir nazariy modellarni tahlil qilish asosida taqdim etilgan konsepsiyalarda farqlar ko'zga tashlansa-da, ularning barchasida uchta parametr ishtirok etishi haqidagi xulosaga kelish mumkin: ijtimoiy xulq-atvor motivlari va boshqa kishilarning emotsiyasini tushunish; shaxsiy emotsiyalarini maqbul ifoda ettirish va yo'naltirish; o'zining emotsiya va ijtimoiy xulq-atvorini boshqarish. Mazkur uch blok parametrlar barcha tadqiqotchilar tomonidan qayd etilgan va bolalarda emotsional intellektning shakllanganligini tashxis etish imkonini berishi mumkin. Bu esa, mazkur bloklar maktabgacha yosh davrida ham emotsional intellektni shakllantirishning tarkibiy asoslari bo'lib xizmat qilishi mumkinligidan guvohlik beradi.

Ma'lumki, bola shaxsi o'zaro va bioijtimoiy munosabatlar tizimida tarkib topadi. Bu munosabatlarni keltirib chiqaradigan asosiy manba – bolaning hissiy bilish jarayoni va o'yin faoliyatidir. Tafakkur psixologiyasiga ko'ra, bola shaxsiga xos bo'lgan barcha psixologik holat va jarayonlar ijtimoiy hayot hamda atrof-muhit ta'sirida vujudga keladi. Bola o'z faoliyati jarayonida o'zini o'rab turgan tabiiy va antropogen narsalar va hodisalar mohiyatini bilib oladi.

Bolaning atrof-muhitni hissiy bilish jarayoni o'z mohiyati va xususiyatiga ko'ra sezgilariga bevosita ta'sir etgan atrof-muhit (tabiat) va uning alohida xossalarning ko'rinishlar, qiyofalar, tasvirlar, manzaralar shaklida miyasida eks etishidir.

Bola o'zini o'rab turgan atrof-muhit va tabiatning muayyan xossalarni: havoning issiq-sovuqligini terisi, suyuqliklar ta'mini tili, havodagi hidni burni, tabiatdagi turli obyektlar rangini ko'zi, tovushlarni qulog'i bilan sezib, ya'ni mazkur xossalar bolaning besh turli sezgisiga ta'sir etib, shu a'zolarida



joylashgan asab hujayralari orqali bosh miyasiga borib yetib, natijada, miyada tabiatning ayrim xossalari to'g'risida bilim paydo bo'ladi, ularning ko'rinishlari, qiyofalari, tasvirlari, manzaralari vujudga keladi.

Maktabgacha yoshdagi bolalar jo'shqin rivojlanish bilan ajralib turadi. Maktabgacha yosh davrida turli yo'nalishlar bilan bog'liqlikda kuchli o'zgarishlar sodir bo'ladi, faoliyatning asosiy turlari, shuningdek, psixik jarayonlar faol rivojlanadi. Masalan, bolaning xotirasi ham sifat, ham miqdor o'zgarishlariga uchraydi. N.Kryajeva ta'kidlaganidek, maktabgacha katta guruh bolalari qariyb 7-8 ta obyektни, tayyorlov guruhlarida esa, 10-12 tagacha obyektни yodda saqlaydi. Sifat o'zgarishlari shundayki, maktabgacha yoshdagi bolalar nafaqat uning uchun qiziqarli axborotlarni yodda saqlaydi, shuningdek, yod olish tavsiya etilgan topshiriqlarni qabul qiladi, zarur ma'lumotlarni esda saqlashning alohida usullarini qo'llay oladi.

Yetti yoshgacha to'plangan amaliy tajriba, nutq, xotira va idrok etishning yetarli darajasi bolada o'z kuchiga ishonchni oshiradi. Bola xulq-atvorning irodaviy xususiyatlariga ijobiy ta'sir ko'rsatuvchi turli murakkablikdagi maqsadlarni belgilashga qobiliyatlidir. Shuningdek, maktabgacha yoshdagi bolalarning motivatsion sohasida ham qator o'zgarishlar ro'y beradi: xulq-atvorning umumiy yo'nalganligini ta'minlovchi o'zaro aloqador motivlar tizimi shakllanadi, bilishga qiziqish va ehtiyoj, atrofda kishilarga ijobiy munosabat motivasiyasining jadal rivojlanishi amalga oshadi. Bosqichma-bosqich maktabgacha katta yoshdagi bolalarda axloqiy baho berish o'zlashtiriladi, shaxsiy xatti-harakatlarning ketma-ketligini hisobga olish boshlanadi, natija va kattalarning bahosidan umidvorlik sezadi.

Yuqoridagi tahlillarga asoslangan holda maktabgacha katta yoshdagi bolalarda ijtimoiy ongning shakllantirishning kognitiv-motivasion, faoliyatli, refleksiv-baholovchi va xulq-atvor bosqichlarini ajratib ko'rsatish mumkin. Mazkur bosqichlarning har biri avvalgisining sifat o'zgarishlariga uchrashini hisobga oladi va yanada boyitib boradi.

Kognitiv-motivasion bosqich bolalar tomonidan axloq me'yorlarini bilish va o'zaro munosabatlarning muayyan usullarini o'zlashtirishning muhimligini anglab yetilishini nazarda tutadi. Faoliyatli bosqich maqsad qo'yish, harakatlarni rejalashtirish, konstruktiv o'zaro munosabatlarning me'yorlari va usullarini o'zlashtirish qobiliyatlarini o'z ichiga oladi. Refleksiv-baholovchi bosqich o'z xatti-harakatlarini, ichki holatini, his-tuyg'ularini, mulohazalarini anglash va baholash qobiliyatini, o'z bilganlari doirasini anglash, o'z yutug'ini ko'ra olishni nazarda tutadi. Xulq-atvor bosqichi turli holat va vaziyatlarda o'zaro hamkorlik usullarini bilish va mavjud tajribadan foydalanishni nazarda tutadi.

Ijtimoiy xulq-atvor quyidagi asosda qurilishi mumkin: o‘z niyat va istaklari o‘rtasidagi “Men”ini; insonlar bilan munosabatda o‘z “Men”ini; jamiyatdagi qadriyatlar, axloq va madaniyat me‘yorlari bilan bog‘liqlikda o‘z “Men”ini anglab olish.

Bolalarda ijtimoiy ongni shakllantirish uchun bolalarning o‘zaro hamkorlik usullari, xulq-atvor me‘yorlari va ularning qadriyatli yo‘nalishlari to‘g‘risidagi bilim darajasini aniqlash, boshqalar bilan samarali aloqada bo‘lish ko‘nikmalarini shakllantirish darajasini o‘rganish, muayyan vaziyatga muvofiq ma‘lum bir xulq-atvor yo‘nalishini oqilona tanlash qobiliyati, shuningdek, erkin fikr bildirish imkoniyatlaridan foydalanish qobiliyatini o‘rganish kerak.

Ijtimoiy ongni shakllantirishning har bir bosqichida bir vaqtning o‘zida ijtimoiy ongni shakllantirishning mazmunli komponentlari ham bo‘lgan turli xil diagnostika metodikalaridan foydalanish ko‘zda tutildi. Shuningdek, har bir bosqich maqsadlarini amalga oshirishga qaratilgan maxsus mashqlar, treninglar, o‘yinlar va boshqalar nazarda tutilgan.

I – kognitiv (kognitiv-motivatsion) bosqichda asosiy e‘tibor bolalarning o‘zaro hamkorlik usullari, xulq-atvor me‘yorlari va qadriyatli yo‘nalishlar haqidagi bilimlarining tarkib topganiga qaratiladi. “Muammoli maydonni” ko‘rish va bolalarning xulq-atvori qoidalari va o‘zaro hamkorlik qilish usullari, xatti-harakatlarni (o‘zlarini va boshqalarni ham) baholash qobiliyatini aniqlash uchun “Tugallanmagan gaplar”, “Men do‘stman”, “Mening do‘stim” kabi diagnostika usullaridan foydalanish mumkin.

II – faoliyatli bosqichda o‘zining va boshqalarning holatini hisobga olgan holda, emotsional kechinmalar darajasida samarali hamkorlik uchun yetarli bo‘lmagan ko‘nikma va yaxshi yo‘naltirilgan bo‘lish, o‘z harakatlari, ishlari va motivlarini umuminsoniy qadriyatlar bilan bog‘lab tahlil qilish zarurati o‘rtasidagi ziddiyatni hal qilish mumkin.

Bolalarning o‘z-o‘zini baholashga asoslangan xulq-atvori va muloqotdagi kompetentligini o‘rganish uchun ular bilan “Men o‘zimni qanday tutaman?” mavzusida suhbat o‘tkazish ma‘qul. Unda bola har bir fikr bo‘yicha o‘ziga mos javob variantini qabul qilishi kerak. “Aslida sen qanday yo‘l tutishingni iloji boricha samimiyroq javob berishing lozim”, degan ko‘rsatma beriladi. Suhbat natijalarini tahlil qilish tarbiyachiga bolaning xulq-atvorining o‘ziga xos xususiyatlarini tushunish va uni keyinchalik tuzatishga imkon beradi.

Atrof-muhit bilan konstruktiv o‘zaro munosabatlarni o‘zlashtirish, o‘z tahminlarini aniqlash va ularni verbal shaklga o‘tkazish qobiliyatini rivojlantirish uchun ham diagnostik, ham shakllantiruvchi funktsiyaga ega mashqlar samarali bo‘ladi.



III – reflektiv-baholovchi bosqich ma'lum bir vaziyatga muvofiq biror bir xulq-atvor yo'nalishini tanlab olishga imkon beradi. Bolalar xatti-harakatlar modelini erkin va ongli ravishda tanlashi hamda to'g'ri qaror qabul qilishlari muhimdir.

Bolalar tomonidan ma'lum bir harakatni baholash, shuningdek, o'ziga xos ijtimoiy roldagi xarakter xususiyatlari va o'z-o'ziga baho berish darajasini tashxislash uchun Dembo – Rubinshteynning mashhur “Shaxsning o'z-o'ziga baho berishi” metodikasi yoki bolalar tomonidan ular ega bo'lgan yoki bo'lishni xohlaydigan ma'naviy-axloqiy fazilatlariga o'zlarining baho berish darajasini aniqlashga qaratilgan “Fazilatlar do'koni” mashqidan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

IV – xulq-atvorga doir bosqich. Bu ko'nikmalarni yangi vaziyatda qo'llay olishning yuqori darajada shakllangani bilan bog'liq. Bu holatda mavjud bo'lgan tajribadan ijtimoiy xulq-atvorning turli shakllarida foydalanish va axloqiy namunalarga muvofiq harakat qilish zarurligini shakllantirishdan tashqari, mas'uliyatning yuqori darajasi ham namoyon bo'ladi.

Xulq-atvorni baholash uchun “Qadriyatli yo'nalganlik ijtimoiy xulq-atvor ko'nikmalarining ko'rsatkichi sifatida” metodikasidan foydalanish mumkin. Uning maqsadi bilish, shaxsiyat (uning ikki ko'rinishida – “Men – qadriyat” va “Boshqalar – qadriyat”), mas'uliyat va ijtimoiy foydali faoliyat kabi jihatlar orqali ijtimoiy xulq-atvorning rivojlanish darajasini aniqlashdan iborat.

Ijtimoiy ongning faoliyatli va reflektiv-baholash komponentlarini rivojlantirishda bolalarda o'yin faoliyati asosiy vosita hisoblanadi. Bunda syujetli-rolli o'yin alohida ahamiyatga ega.

#### Adabiyotlar:

1. Blake PR, Rand DG, Tingley D, Warneken F. 2015. The shadow of the future promotes cooperation in a re'eated prisoner's dilemma for children. *Sci Re'*. 5:14559.
2. Block K, Gibbs L, Staiger 'K, Gold L, Johnson B, Macfarlane S, Long C, Townsend M. 2012. Growing community: the impact of the Ste'hanie Alexander Kitchen Garden program on the social and learning environment in 'rimary schools. *Health Educ Behav*. 39(4):419-32.
3. Cortes Barragan R and Dweck CS. 2014. Rethinking natural altruism: simple reci'rocal interactions trigger children's benevolence. *proc Natl Acad Sci U S A*.111(48):17071-4.
4. Xodjaev B.X. Umum ta'lim maktabi o'quvchilarida tarixiy tafakkurni modernizatsiyalashgan didaktik ta'minot vositasida rivojlantirish: ped.fan.dok.... diss. - T., 2016. - 314 b.